



SOG'LOM AVLOD UCHUN

ISSN 2010-7900

6-son / 2016-yil / iyun

Go'zal va betakrorimson, muqaddas Vatomim,
jonim senga fido, O'zbekistonim!



5

Energiya
muammosining
yangi yechimi

12

Xavotirlilikning
psixologik
korreksiyasi

19

Suyak
yemirilishi yoki
bo'g'imlar artrozi

23

Bolangiz
ko'p e'tibor
talab qiladimi?

**Barkamol avlod —
Vatanning baxti**

SOG'LOM AVLOD UCHUN

Ilmiy-tarbiyaviy, ommabop,
bezakli oylik jurnal

6 (242)-son, 2016-yil, iyun

"Sog'lom avlod uchun" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Vazirlari
Mahkamasingin 1995-yil 13-aprel
127-sonli qaroriga asosan
"Maktabgacha tarbiya" jurnali
negizida tashkil etilgan. 1996-yil
yanvardan chiqqa boshlagan.

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi,
"Sog'lom avlod uchun"
xalqaro xayriya fondi

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Svetlana INAMOVA
Tatyana KARIMOVA
Ulug'bek INOYATOV
Abdulla ORIPOV

BOSH MUHARRIR:

Muftillo YUSUPOV

TAHRIR HAY'ATI:

Tillaniso ESHBOYEVA
(mas'ul kotib)
Shomirza TURDIMOV
Sabohat MIRDJALILOVA
Malohat A'ZAMOVA

Manzilimiz: 100000. Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Telefon 233-18-92 (faks), 233-31-53.
E-mail: jlsaumt@mail.ru
www.jlsau.uz


O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi
tomonidan 2007-yil 3-yanvara 0102-
tarib raqami bilan ro'yxtidan o'tkazilgan.

Jurnal mакeti tahririyatning matbaa
bo'limida tayyorlandi.

Biror maqola yoki undan parcha ko'chirib bosilganda "Sog'lom avlod uchun" jurnalidan olindi" deb izohlash shart. Tahririyat nuqtayi nazariga mos kelmagan maqolalar tahlil etilmaydi va egalariga qaytarilmaydi.

Navbatchi muharrir: Adolat Nurullayeva
Musahhih: Sayyora Sharipova
Jurnalda M.Amin, M.Nurinboyev,
B.Rizoqulov olgan suratlardan foydalаниди.
Bosmaxonaga 2016-yil 30-iyun kuni
topshirildi. Ofset usulida chop etildi.
Qog'oz bichimi A-4.
Qog'oz hajmi 4,0 bosma taboq.
Nashriyot hisobida 3,8 bosma taboq.
Adadi 9683 nusxa. 570-buyurtma.

"Sano-standart" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Toshkent sh., Shiroq ko'chasi, 100-uy.



BIRINCHI BET:

Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim, jonim
senga fido, O'zbekistonim!

TO'RTINCHI BET:

2016–2017-o'quv yili uchun
oliy ta'lim muassasalariga
qabul jarayonidan lavhalar



USHBU SONDA:

XALQARO HAMKORLIK

Bola huquqlari YUNISEF nigohida 2

MULOHAZA UCHUN MAVZU

Energiya muammosining yangi yechimi 5

ILM-FAN UFQLARI

Tafakkur sarhadlaridan o'zayotgan intellekt 8

SALOMATLIK OLAMI

Irsiyatni asrang! 10

RUHIYAT MANZILI

Xavotirlilikning psixologik korreksiyasi 12

YANGI PEDTEXNOLOGIYALAR

Qo'shiq — til o'rghanishda muhim vosita 14

MUTOLAA

"Hayratul-abrор" hayratlari 16

IBN SINO DARSXONASI

Suyak yemirilishi yoki bo'g'imirartoz 19

MA'NAVIY OLAM

Ayol, avvalo, ona 21

TARBIYA TADQIQOTLARI

Bolangiz ko'p e'tibor talab qiladimi? 23

ONALAR MAKTABI

Massaj go'dak uchun koni foyda 25

MADANIY MEROS VORISLIGI

Soz ilmining sultoni 27

SOG' TANDA – SOG'LOM AQL

Dengiz ham davolaydi 29

FAN VA ZAKOVAT

Bilgan va bilmaganlarimiz 31

XAVOTIRLILIKNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI

Psixologik lug‘atda xavotirlilikka quyida-gicha ta’rif berilgan: “Bu turli hayotiy vaziyatlarda, shu jumladan, bunga asos bo‘lmasa-da, xavotirni his qilishga yuqori moyillikdan iborat individual psixologik xususiyatdir”.

Xavotirni xavotirlilikdan farqlash zarur. Agar xavotir – bola bezovtaligining epizodik ko‘rinishi bo‘lsa, xavotirlilik mustahkam holat hisoblanadi. Masalan, bolada bayramda chiqish qilish oldidan yoki sinfda mavzuni gapirib berishda bezovtalanish hollari kuzatiladi. Biroq bu bezovtalik har doim namoyon bo‘lmaydi, boshqa vaziyatlarda u sokin bo‘lishi mumkin. Bu o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Agar xavotir holati tez-tez va turli vaziyatlarda (dars payti javob berishda, notanish odamlar bilan muloqotda va h.k.) takrorlansa, bu holda xavotirlilik haqida gapirish mumkin.

Xavotirlilik qandaydir muayyan vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmaydi va deyarli doim namoyon bo‘ladi. Bu holat odamga faoliyatning har qanday ko‘rinishida hamroh bo‘ladi. Qachonki odam aniq nimadandir qo‘rqa, biz qo‘rquvning ko‘rinishi haqida gapiramiz. Masalan, qorong‘ilikdan, balandlikdan, bo‘sh joydan qo‘rquv.

K. Izard “qo‘rquv” va “xavotir” atamalaring farqini shu tarzda tushuntiradi: xavotir – bu ba‘zi hislarning uyg‘unlashuvi, qo‘rquv esa faqat shu hislardan biridir. Qo‘rquv odamda istalgan yoshda rivojlanishi mumkin. A.I.Zaxarov fikriga ko‘ra, bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalarda tungi qo‘rquvlar, hayotining ikkinchi yilda – birmuncha ko‘proq kutilmagan tovushlar, yolg‘izlik, og‘riq, shuningdek, tibbiy xodimlardan qo‘rquv namoyon bo‘ladi.

Hozirgi vaqtgacha xavotirlilikning paydo bo‘lish sabablari yuzasidan muayyan nuqtayi nazar ishlab chiqilmagan. Ammo ko‘pchilik olimlar maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi bolalarda xavotirlilikning asosiy sabablaridan biri bola va ota-onasi o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishi deb hisoblaydilar.

“Maktab o‘quvchisining hissiy turg‘unligi” kitobi mualliflari B.I.Kochubey va Y.V.No-

vikova xavotirlilik bolada quyidagi holatlarda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ichki nizolarning mavjudligi oqibatida rivojlanadi deb yozadi:

1. Ota-onalar yoxud ota-onasi va maktab (maktebgacha tarbiya muassasasi) tomonidan taqdim etiladigan qarama-qarshi talablar. Masalan, ota-onasi bola o‘zini yomon his qila-yotgani uchun maktebgaga yubormaydi, o‘qituvchi esa jurnalga “ikki” baho qo‘yadi va boshqa bolalarning yonida uni dars qoldirgani uchun tergaydi.

2. Noteng (ko‘pincha yuqori) talablar. Masalan, ota-onalar bolaga a’lochi bo‘lishi kerakligi haqida qayta-qayta takrorlaydilar, o‘g‘il yoki qizlari “besh” baho olishiga qaramasdan, sinfning eng yaxshi o‘quvchisi bo‘lmaganliklariga ko‘nikishni istamaydilar.

3. Bolani kamsituvchi, uni tobe holatga qo‘yuvchi salbiy talablar. Masalan, tarbiyachi yoki o‘qituvchi bolaga: “Agar sen men yo‘qligimda kim o‘zini yomon tutganligini aytib bersang, sening boshqa bolalar bilan urushganining onangga aytmayman” deydi.

Maktebgacha tarbiya va kichik maktab yoshida o‘g‘il bolalar, 12 yoshdan keyin esa qiz bolalar ancha xavotirlidirlar. Bunda qiz bolalar o‘zaro boshqa odamlar bilan munosabat yuzasidan hayajonlanadilar, o‘g‘il bolalarni esa ko‘proq darajada zo‘ravonlik va jazo xavotirga soladi. Nojo‘ya xatti-harakat sodir etgan qizlarni oyisi yoki pedagog haqida yomon fikrga borishi, dugonalari u bilan o‘ynashdan voz kechishi tashvishga soladi. Bunday vaziyatda o‘g‘il bolalar ko‘proq kattalar ularni jazolashlari yoki tengdoshlari urishlaridan qo‘rqadilar. Kitob mualliflari ta’kidlaganlaridek, o‘quv yili boshlanganidan 6 hafta o‘tgach o‘quvchilarda xavotirlilik darajasi oshadi va ular 7-10 kunlik ta’tilga ehtiyoj sezadilar.

Bolaning xavotirliligi uning atrofidagi kattalar xavotirliliginin darajasiga bog‘liq. Pedagog yoki ota-onaning yuqori xavotirliligi bolaga o‘tadi. Xayrixoh munosabatda bo‘lgan oilalardagi bolalar tez-tez janjal bo‘ladigan oila bolalaridan ko‘ra kamroq xavotirlanadilar.

Shunisi qiziqliki, ota-onalar ajrashgach, oiladagi janjallar tugaganida bolaning xavotirlilik darajasi pasaymaydi, aksincha birdan oshib ketadi. Psixolog Y. Brel shunday qonuniyatni ham aniqladi: bolalar xavotirliligi ota-onalar o'z ishi, yashash sharoiti, moddiy ahvoldidan qoniqmagan hollarda ham o'sar ekan. Ehtimol, shuning uchun ham bugungi kunda xavotirli bolalar soni uzlusiz oshayotgandir. Oilada ota-ona tarbiyasining hukmron usuli ham bolaning ichki xotirjamligi yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Shunday fikr mavjudki, o'quv xavotiri maktabgacha tarbiya yoshidayoq shakllanishi boshlaydi. Bunga tarbiyachi ishining turli usullari, bolani boshqalar bilan doimiy solishtirish, qo'yiladigan yuqori talab ham sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalar farzandi erta yoshdan bilim olishi uchun ko'p sonli o'qituvchilarni yollaydi, natijada bola soatlab topshiriqlarni bajaradi. Kichkitoyning chiniqmagan va jadal ta'limga tayyor bo'limgan organizmi bunday bosimga bar-dosh berolmaydi, go'dak betob bo'ladi, o'qishta ishtiyobiyoq yo'qoladi, yaqinlashib kelayotgan o'quv mavsumi yuzasidan xavotiri ortadi. Xavotirlilik nevroz yoki boshqa psixik buzilishlar bilan aloqador bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tibbiy mutaxassis yordami zarur.

Maktabgacha tarbiya muassasasi va maktablarda xavotirli bolalar bilan ishslash oson emas. Hatto boshqa kategoriyadagi "muammoli" bolalar bilan ishslashdan ko'ra og'irroq, chunki giperfaol yoki tajovuzkor bolalar sinfda yaqqol ajralib turadilar, xavotirli bolalar esa o'z muammolarini o'zida saqlashga intildi. Ular hodisaning o'zidan emas, balki oldindan his qiladigan tuyg'u ta'sirida qo'rquvga tushadilar. Ko'pincha ular eng yomonini kutadilar. O'zlarini himoyasiz his qilib, yangi o'yinlarni o'ynashdan, faoliyatning yangi turiga kirishishdan cho'chiydarlar. Ular o'zlariga nisbatan talabchan va tanqidiy ko'z bilan qaraydilar. Bunday bolalarning o'z-o'zini baholashi past darajada, hatto o'zlarini hamma narsada boshqalardan yomon, o'ta xunuk, aqlsiz, qovushmagan deb o'ylaydilar.

Bezovta bolalar uchun somatik muammo-lar ham xos: qorindagi og'riq, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, tomoqdagi siqilish, qiyinlash-gan yuzaki nafas olish va boshqalar. Xavotir namoyon bo'lgan vaqtida ular og'iz qurib qo-

lishi, tomoqqa narsa tiqilishi, oyoqdagi zaiflik, yurakning tez-tez urishini his qiladilar.

Xavotirli bola bilan ishslash ancha mushkul vazifa bo'lib, uzoq vaqt talab qiladi. Mutaxassislar ular bilan ishslashni uch yo'nali-shda olib borishni tavsiya qilishadi:

1. O'z-o'ziga baho berishni oshirish.
2. Bolani birmuncha to'lqinlantiruvchi vaziyatlarda o'zini boshqarishga o'rgatish.
3. Mushak zo'riqishini olib tashlash.

Albatta, qisqa vaqt ichida o'z-o'zini baholashni oshirish mumkin emas. Har kuni maqsadli yo'naltirilgan ish olib borish zarur. Bo'лага ismini aytib murojaat qiling, kichik muvaffaqiyati uchun ham maqtang, yutuqlarini boshqa bolalar oldida ta'kidlang. Biroq sizing maqtovingiz samimiy bo'limg'i lozim, chunki bolalar soxtalikni tezda sezib, ta'sirlanadilar. Shuningdek, bola uni nima uchun maqtayotganliklarini, albatta, bilmog'i zarur. Har qanday vaziyatda bolani maqtash uchun sabab topish mumkin.

Xavotirli bolalar atrofdagilardan o'zi to'g'risida yoqimli maqtovlarni bilib oladigan, o'ziga "boshqalarning nigohi" bilan qaraydi-gan "Xushomad", "Men senga sovg'a qila-man" kabi o'yinlarda ko'proq ishtirok etishla-ri zarur. Xavotirli bolalar o'z muammolarini to'g'risida ochiq ma'lum qilmaydi, ba'zida esa ularni yashiradi. Bunday hollarda bolani muammoni birgalikda muhokama qilishga chaqirish lozim. Masalan, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar bilan doira hosil qilgancha o'tirib, ularning tuyg'ulari va ha-yajonlantiradigan vaziyatlardagi kechinmala-ri haqida gaplashish o'yin-mashg'ulotini o'tkazish mumkin. Maktabda esa badiiy asar qahramonlari timsolida bolalarga eng jur'atli odam - bu hech kimdan qo'rqlmaydigan odam emas, balki o'z qo'rquvini yenga oladi-gan inson ekanligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, xavotirli bolalar bilan ishslashda tana faol ishtirok etadigan o'yinlar o'ynash maqsadga muvofiq. Relaksatsiya, chuqur na-fas olish texnikasi, yoga bilan shug'ullanish, massaj va shunchaki badantarbiya mashqlari ular uchun juda foydalidir.

N. KAMILOVA,
psixologiya fanlari nomzodi,
TDPU "Psixologiya" kafedrasи mudiri.
A. HOSILOVA,
TDPU talabasi.